

JAHON BANKING O‘ZBEKISTONDAGI DASTURI

2024-yil, aprel

O‘zbekistondagi so‘nggi tendensiyalar

O‘zbekiston	2023
Aholi soni (mln kishi)	36,2
YaIM (joriy narxlarda, mlrd AQSH dollari)	90,9
Aholi jon boshiga YaIM (joriy narxlarda, mlrd AQSH dollari)	2510,1
Tug‘ilganda kutilayotgan o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi (yillar)	70,9

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiyotning qator tarmoqlarini liberallashtirish hamda xususiy sektorni rivojlantirish uchun sharoitlarni yaxshilash kabi muhim islohotlar amalga oshirildi.

2023-yilda hukumat bir qator muhim islohotlarni boshladi. Xususan, energetika sohasida mustaqil tartibga soluvchi organ yaratilib, elektr energiyasi tariflarini isloh qilishga kirishildi. Davlat temir yo‘llari operatori tuzilmasi o‘zgartirildi, yirik davlat kimyo korxonasi va davlat banklaridan biri xususiylashtirildi, bu esa tegishli tarmoqlarda raqobatning kuchayishiga zamin yaratdi.

Bundan tashqari, mamlakat rasmiylari tomonidan Milliy ijtimoiy himoya agentligi tashkil etildi, gender zo‘ravonligiga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilik takomillashtirildi va ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarning bepul yuridik yordam olish imkoniyatlari kengaytirildi.

O‘zbekiston, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha yanada ulug‘vor maqsadlarni belgilab, turli xil ifloslanish turlarini nazorat qilishning yangi tizimini joriy etib, “yashil” faoliyat turlarining milliy taksonomiyasini yaratgan holda “yashil rivojlanish” trayektoriyasini tanladi. Hukumat toza energiyaning yangi

manbalariga sarmoya kiritishda davom etmoqda hamda iqlim o‘zgarishi ta‘siriga moslashish uchun energiya va suv samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rmoqda.

Aholi soni o‘shining yuqori sur‘atlarini va har yili yangi yoshlar mehnat bozoriga kirib kelishini hisobga olgan holda, mamlakat iqtisodiyotining o‘shishi ish o‘rinlarini faol ravishda yaratishga yo‘naltirilishi kerak. Bunga erishish uchun iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish va raqobatni rag‘batlantirishni o‘z ichiga olgan islohotlar dasturini davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu yo‘nalishdagi asosiy strategiyalar qatoriga davlat korxonalarining iqtisodiyotdagi ustunligini yanada kamaytirish, yerga bo‘lgan huquqlarni mustahkamlash, telekommunikatsiya sohasi va xom ashyo tovarlari savdosini tartibga solishni bekor qilish, logistika va transport bog‘liqlikni takomillashtirish hisobiga savdo xarajatlarini kamaytirish chora-tadbirlari kiradi. Bundan tashqari, ish o‘rinlari yaratish sur‘atlarini va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida unumdorlikni o‘stirishga yo‘naltirilgan shart-sharoitlar yaratish uchun mahalliy ishchi kuchi malakasini rivojlantirishga ko‘proq sarmoya kiritish zarur.

O‘zbekistondagi faoliyat strategiyasi

Jahon banki portfeli

Amaldagi loyihalar soni	27
Qarzlari	6,07 mlrd AQSH dollari
XTTB	2,34 mlrd AQSH dollari
XTA	3,68 mlrd AQSH dollari

2022-yil may oyida Jahon banki Ijroiya direktorlar kengashi [Jahon Banki guruhi \(JBG\) va O‘zbekiston o‘rtasidagi yangi Hamkorlik dasturini \(HD\) tasdiqladi](#). Hujjatda Yangi O‘zbekistonning 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasini amalga oshirishga ko‘maklashish maqsadida kelgusi besh yil ichida bank tomonidan hukumatga moliyaviy va tahliliy yordam ko‘rsatish rejalari bayon etilgan.

HD O‘zbekistonga inklyuziv va barqaror bozor iqtisodiyotiga o‘tishda ko‘maklashishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida quyidagilarni belgilaydi: 1) xususiy sektorda ish o‘rinlari sonini ko‘paytirish; 2) inson kapitalini rivojlantirish (tibbiyot, ta‘lim, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va boshqalar); shuningdek, 3) fuqarolar farovonligi va iqlim o‘zgarishiga chidamlilikni oshirish maqsadida iqtisodiy o‘sishning yanada ekologik modelini joriy etish.

HD shuningdek, mamlakat rasmiylarining gender tengsizlikni bartaraf etish, fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonlaridagi ishtirokini rag‘batlantirish, davlat organlarining jamoatchilik oldida hisobdorligini oshirish borasidagi sa‘y-harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

2017-yildan boshlab Jahon banki tomonidan O‘zbekistonni moliyaviy va tahliliy qo‘llab-quvvatlash hajmi sezilarli darajada oshdi. Uning maqsadi bozor va makroiqtisodiy islohotlarning kompleks dasturini amalga oshirishda hukumatga ko‘maklashishdir.

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Jahon bankining Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasidagi uchinchi yirik mijozi va ushbu mintaqada Xalqaro Taraqqiyot Agentligi tomonidan eng ko‘p moliyalashtiriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yil 1-aprel holatiga ko‘ra, Jahon bankining O‘zbekistondagi dasturi umumiy qiymati 6,07 mlrd dollarga yaqin bo‘lgan 27 ta loyihadan iborat. Ular Xalqaro tiklanish va taraqqiyot bankining (XTTB) 2,34 mlrd dollarlik qarzlari va Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasining (XTA) 3,68 mlrd dollarlik imtiyozli kreditlari hisobidan moliyalashtirilmoqda (XTTB va XTA Jahon banki Guruhiga kiradi).

Jahon bankining Uglarod aktivlarini transformatsiya qilish jamg‘armasi (TCAF) tomonidan XTAning moliyaviy operatsiyalari doirasida 46,25 million dollarlik grant mablag‘lari ham taqdim etildi. Ushbu mablag‘lar Jahon banki tomonidan dunyoda birinchi marotaba energetika sohasida emissiyalarni kamaytirish bo‘yicha hukumat siyosatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida moliyalashtiriladigan [“O‘zbekiston energetika sektorini transformatsiya qilish uchun Innovatsion uglarodli moliyalashtirish” loyihasini](#) amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan yuqoridagi loyihalar kerakli makroiqtisodiy islohotlarni joriy qilish va muhim iqtisodiy sektorlarni modernizatsiya qilishda muhim rol

o'ynaydi. Xususan, ushbu loyihalar qishloq xo'jaligi, suv va yer resurslarini boshqarishni takomillashtirish, suv ta'minoti va sanitariya, irrigatsiya, energetika, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tarmoqlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, ular shahar va qishloq infratuzilmasini, milliy innovatsion tizimni, soliq, statistika, moliya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy institutlar faoliyatini takomillashtirishni qo'llab-quvvatlaydi.

O'zbekistondagi iqtisodiy vaziyatning tahlili

Iqtisodiyotdagi oxirgi o'zgarishlar

2023-yilda O'zbekistonning real yalpi ichki mahsuloti investitsiyalar, xususiy iste'mol va eksport hisobiga 6 foizga o'sdi. Iste'mol narxlari inflyatsiyasi so'nggi yetti yildagi eng past darajaga tushib, 2022-yildagi 12,3 foizdan 2023-yil dekabrda 8,8 foizga tushdi. 2023-yilda o'zbek so'mi AQSh dollariga nisbatan 9 foizga qadrsizlandi. Bunga qisman Rossiya rublining (mamlakatning tashqi savdo bo'yicha asosiy hamkori valyutasi) AQSh dollariga nisbatan qadrsizlanishi sabab bo'lgan.

2023-yilda import o'sishi tezlashgani va mehnat migrantlarining pul o'tkazmalari hajmi qisqargani (oxirgisi rublning qadrsizlanishi bilan bog'liq) sababli joriy hisob taqchilligi bo'yicha holat yomonlashdi.

Sovuq qish mavsumida energetika infratuzilmasini qo'llab-quvvatlash va yoqilg'i uchun favqulodda xarajatlar, ish haqi va ijtimoiy nafaqalar, energiya subsidiyalari va davlat banklari tomonidan taqdim etiladigan davlat korxonalarini subsidiyalangan kreditlash bo'yicha xarajatlar tufayli byudjet taqchilligi 2022-yildagi YaIMga nisbatan 4,1 foizdan 2023-yilda 5,8 foizgacha oshdi.

Jahon bankining O'zbekistondagi loyihalari portfeli hukumatga taqdim etiladigan maslahat-tahliliy xizmatlar dasturi bilan to'ldiriladi. Uning doirasida bank kambag'allikni qisqartirish, sog'liqni saqlash, ta'lim va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimlarini rivojlantirish sohasidagi milliy strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishga hissa qo'shadi. Shuningdek, energetika, aviatsiya, soliq va bank tizimlarini isloh qilishda texnik ko'mak ko'rsatilmoqda.

Oltin-valyuta zaxiralari yetarli darajada saqlanib qoldi. Ularning hajmi 2023-yil dekabr holatiga ko'ra 34,6 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu resurslar 8 oy davomida import xarajatlarini qoplash uchun yetarli bo'ladi.

Kambag'allik darajasi 2022-yildagi 5,0% dan 2023-yilda 4,5% gacha tushdi (daromadi o'rtadan past bo'lgan mamlakatlar uchun 2017-yil narxlaridagi xarid qobiliyati paritetiga ko'ra kuniga 3,65 AQSh dollari miqdoridagi xalqaro kambag'allik chegarasi bo'yicha baholanadi).

Ishsizlik darajasi 2022-yildagi 8,9 foizdan 2023-yilda 8,1 foizgacha tushdi. 2023-yilda o'rtacha real ish haqi 7,8 foizga oshdi, bu nafaqat o'sib borayotgan talab, balki mehnat bozorida malakali kadrlar yetishmovchiligi tufayli ham sodir bo'ldi.

Iqtisodiy rivojlanish istiqbollari

Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda iqtisodiy o'sish 5,5 foizga yetadi. O'rta muddatli istiqbolda u asta-sekin tezlashishi mumkin. Rossiyadan pul o'tkazmalarining kamayishi tufayli iste'molning o'sishi 2023-yilda pasayadi.

Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, kutilayotgan fiskal konsolidatsiya choralari

hamda mamlakatning asosiy tashqi savdo hamkorlari – Rossiya va Xitoyga eksport o‘sishi sur‘atlarining sekinlashishi ehtimolini hisobga olgan holda O‘zbekiston YaIM o‘sishi 2024-yilda 5,3 foizni tashkil etadi.

Iqtisodiy o‘shish asosan tuzilmaviy islohotlarning davom etishi hisobiga qo‘llab-quvvatlanadi. Xususan, bunga davlat korxonalarini restrukturizatsiya qilish va davlat aktivlarini xususiylashtirish, energetika sohasini rivojlantirishga yirik sarmoyalar kiritish ta‘sir ko‘rsatadi.

Energetika sohasida tariflarni isloh qilish bilan bog‘liq bo‘lgan ichki energiya bozorida narxlarning nisbatan keskin oshishi (jarayon aholining kam ta‘minlangan qatlamlarini ijtimoiy himoya bilan qamrab olish choralari bilan birga amalga oshiriladi) hisobiga 2024-yilda inflyatsiyaning oshishi kutilmoqda.

Prognozlarga ko‘ra, 2024-yilda pul o‘tkazmalari hajmi asosan Rossiyaga boradigan mehnat muhojirlari sonining qisqarishi kutilayotgani hisobiga kamayadi.

Pul o‘tkazmalarining kamayishi va importning ko‘payishi bilan joriy hisob taqchilligi biroz oshadi, lekin barqaror bo‘lib qoladi, chunki O‘zbekiston iqtisodiyotini isloh qilish jarayoni xorijiy moliyalashtirishni jalb qiladi. Ushbu mablag‘lar joriy hisob taqchilligini qoplashga yo‘naltiriladi.

2024-yilda kambag‘allik darajasi 4,3% gacha qisqarishi kutilmoqda (daromadi o‘rtadan past bo‘lgan mamlakatlar uchun 2017-yil narxlaridagi xarid qobiliyati paritetiga ko‘ra kuniga 3,65 AQSh dollari miqdoridagi

xalqaro kambag‘allik chegarasi bo‘yicha baholanadi).

2024-yilda byudjet taqchilligi YaIMning 4,2 foizigacha, 2026-yilda esa 3 foizigacha kamayishi kutilmoqda. Hukumat tashqi qarzlarni bo‘yicha o‘z cheklovlariga rioya qilishi kutilmoqda (“Davlat qarzi to‘g‘risidagi” qonunga muvofiq, davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbatan maksimal miqdori YaIMning 60 foizidan oshmasligi belgilangan). Shu bilan birga, davlat qarzi 2024-yilda YaIMga nisbatan 36,5 foizigacha oshadi va 2026-yilga borib 34,4 foizigacha pasayadi.

Ushbu prognozning pasayishi bo‘yicha xatarlar qatoriga O‘zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlari bo‘lgan Rossiya va Xitoyda iqtisodiy o‘shish sur‘atlarining sekinlashishi, shuningdek, xalqaro moliya bozorlaridagi vaziyatning kutilganidan ko‘ra keskinroq bo‘lishi kiradi.

Ichki xatarlar davlat korxonalarini va banklar tomonidan, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirish doirasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan moliyaviy majburiyatlarning oshishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Mamlakat uchun potentsial ijobiy tendentsiyalar qatoriga oltin va misning jahon bozorlaridagi narxlari oshishi (O‘zbekiston ushbu tovarlar eksportchisi hisoblanadi), shuningdek, hukumatning tuzilmaviy islohotlari oqibatida iqtisodiyot tarmoqlaridagi unumdorlik o‘shishining tezlashishi kiradi.

[Batafsil](#)